

## MAJOZ VA HAQIQAT MUNOSABATIDA AYOL OBRAZINING IRFONIIY VAZIFASI

**Majidova Mahbuba Abdurazzoqovna,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

*Annotatsiya:* Maqolada Alisher Navoiy ijodiyoti, ayol obrazining irfoniyy vazifasi, talqini va uning ahamiyati haqida mulohazalar bildirilgan.

*Kalit so'zlar:* majoz, payg'ambar, ishq, botin, zohir, irfon, badiiy vositalar, obrazlar, nafs.

Ayol-timsol va poetik obraz sifatida Alisher Navoiy she'rlarida keng tadbiiq etilgan. Har ikkala ya'ni majoz va haqiqat munosabatida ayol obrazi beqiyos o'rin egallagan. Shoir majozda inson olamining botini(ichki)ni ifodalaydi. Ya'ni olloh qalbimizda, yuragimizdadir. Ayolni sevish orqali inson kamolotga erishadi, yangilanadi va oshiq natijada ishq haqiqiyga ya'ni ollohni tanishga erishadi. Chunki u ma'shuqasiga erishish uchun ollohga iltijo qiladi. Uni ollohdan so'raydi. Shu tariqa inson ishq orqali mashaqqat chekib o'zligini anglaydi. Bu anglash markazida Navoiy o'z lirikasida, albatta, ayol obrazini misol sifatida keltiradi.

Navoiy bir qit'asida yozadi:

*Ey Navoiy, ko'p majozii ishq ila ma'shufsan,*

*O'tkil andin, dog'i yon ishqii haqiqat sori bot.*

*Ikkisidin garchi oshiq o'lmaki lozim kelur,*

*Bori ul o'lmakii, bo'lg'ay zimmida yuz ming hayot.*

Bu she'rdagi majozii ishq bilan ma'shufsan degan "tanbeh"ning o'ziyoq, Navoiyning lirik qahramoni ko'nglida majozii ishq, ya'ni, hayotga, hayot go'zalliklariga, ma'shuqa va uning betakror husnu jamoliga, fazilat va kamolotiga muhabbat ustunlik qilganligidan dalolat. Qolaversa, navoiyshunos Yo.Is'hoqov haqqoniy ta'kidlaganidek, Navoiy ijodida "majozii ishq haqiqii ishqdan alohida olinib, unga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Balki majozii ishq ishqii haqiqiiyning bir ko'rinishi yoki haqiqii ishq yo'lidagi o'ziga xos bir bosqich sifatida baholanadi". Umuman, har ikkala ishqning ham mahzani-ko'ngil. Ishq ko'ngilda tug'iladi va shunda yashaydi. Shu bois ko'ngil dardu balo, azobu uqubatga muhtalo bo'ladi:

*Dardu balovu g'ussani ko'nglum aro keturdi ishq,*

*Do'stlarin birav kabikim tilagay visoqiga (486), -*

ya'ni birov do'stlarini uyiga taklif etgandek, ishq ko'nglimga dard, balo, g'ussani keltirdi, - deya zorlanadi.

Ba'zan ko'ngildagi ishqning nolasi falakkacha yetadi, oshiqning tanu so'ngaklarini-da o'rtaydi:

*Ko'ngul ichra shu'layi ishqkim, yetadur falakka zaborasi,  
Tanimu so'ngaklarim ul o'tungni yoqarg'a xoru xas aylading (298).*

Ba'zan esa, ishq vodiysiga tushgan ko'ngil bu yo'lda xonumonni ham unutib, ovoralik kasb etadi:

*Ko'ngul to vodiyi ishqig'a tushti, qilmadi bir ham,  
Vatanni yod ul ovvorayi bexonumon hargiz (206).*

Har bir poetik obraz ramziy-majoziy belgi va ranglari bilan ajralib turadi. Ular o'sha obrazning ma'no-mohiyatini to'g'ri anglash va talqin qilishga yaqindan yordam beradi. "Lirik qahramon va uning kechinmalari tasvirining ham bir qancha jihatlari bo'ladi. Bular: sog'inch, iztirob, ishonch, zoriqish, qo'msash va boshqalar. Oshiq (lirik qahramon) obrazi ma'shuqa obrazi bilan o'zaro aloqadorlikda yaratiladi. Lirik qahramon ma'shuqaning beqiyos go'zalligini eslab sog'inadi, uning e'tiborsizligidan, vafosizligidan iztirob chekadi, ko'z yosh to'kadi". Lirik qahramon hayoti, orzuniyatlarini, iztirob va dardlarini anglashda, avvalo, uning ko'ngil hayoti va holiga diqqat etish lozim. Ko'ngil holatidan oshiqning ichki, botiniy tuyg'ulari, ishqda qaysi darajada ilgarilaganini bilish mumkin.<sup>1</sup>

Alisher Navoiy ayolga muhabbati izhorini oshiq ko'ngliga murojaati orqali tushunushimiz mumkin. Shoirning bir nechta ko'ngil radifli g'azallarini uchramiz. Uning "Badoye ul-bidoya" devonidan "ko'ngul" radifli o'nta g'azal o'rin olgan. Masalan:

*Ey Navoiy, istasang bo'lmoq zamiring lavhi pok,  
May suyin kelturkim, g'ayr naqshidin yu(v)li (564),*

Yoki:

*Qadah quyoshi bila ravshan ayla xotirni,  
Chu aylasangki, falak zulmidin zalolati bor (180),-*

kabi baytlardagi zamir va xotir ko'ngil ma'nosidir. Chunki zamirning (ko'pligi zamoir) ich, yurak, ko'ngil, dil; xotirning o'y, fikr, ko'ngil (xotiri mahzun-qayg'uli ko'ngil) mazmunida ishlatilishi lug'atlarda ham qayd etiladi.

Chin oshiqqa yordan har qancha azob yetmasin, u bir lahza ham undan kechmaydi, aksincha, avvalgidan-da ortiqroq oshiq bo'lishini istaydi.

*Qilma tark evrulmak ul gul girdig'a bulbul kibi,  
Qilsalar gar g'unchadek parkand-parkand, ey ko'ngul.*

<sup>1</sup> Bozorova N. Alisher Navoiy g'azallarida ko'ngil obrazi. Dissertatsiya. Toshkent. 2002. 88-bet

Oshiq jismiga ozor yetishidan qo‘rqmaydi, uni g‘unchadek “parkand-parkand” qilsalar ham Guldan ayirmasalar bas. Zero, oshiq yorsiz bir lahza ham yashay olmasligi barchaga ayon. Bu o‘rinda shoir an’anaviy tashbehdan foydalanib, “Ey ko‘ngul, agar g‘unchadek bo‘lak-bo‘lak etsalar ham, ul gul atrofidan bulbuldek aylanishni tark etma”, - deb uqtiradi.

*Orazu la’li xayoli birla sen to xactasen,  
Naf’ etar go’yoki bu za’fingg’a gulqand, ey ko‘ngul.*

Lirik qahramon yor chehrasi va labining xayoli ishtiyoqida xasta. Buning da’vosi nima? O‘likka jon bag‘ishlovchi yorning lablari. Mumtoz she’riyatimizdagi an’anaviy tushuncha – yor labining jonbaxshligi bu o‘rinda ham o‘z mazmunida saqlanib qolgan. Oshiqning xasta ko‘nglini davolashga qodir Yor kim? Keyingi baytlarga e’tibor bersak, bu so‘roqqa javob topishimiz mumkin:

*La’li ne kondindurur, nevchun hadis etmas dema,  
Ne ato border Masihog’a, ne farzand, ey ko‘ngul.*

Bu bayt talmeh san’ati asosida yaratilgan. Unda yorning “la’li ne kondin” ekanligiga e’tibor tortilib, bu “muammoi Masih” taqdiri vositasida hal etilgan. Chunki Iso payg‘ambarning otasiz tug‘ilgan va farzandi bo‘lmagani uning Masihligiga mone’lik qilmagan.

Ishq masalasi-Navoiy she’riyatidagi juda murakkab, munozarali va serqirra masala. Uni anglash va hal qilish oson ko‘rinsa ham, mohiyatiga yetish oson emas. Keyingi paytlarda Navoiy she’rlarining ko‘pchiligida ilohiy ishq, tuyg‘u va haqiqatlari tasvirlangan, degan fikrlar bayon etildi. Lekin bunday da’volarni qo‘llash ham, ularni to‘g‘ri deb bilish ham haqiqatga muvofiq kelmaydi.<sup>1</sup>

Navoiy lirikasida ayol obrazidan tashqari oshiq, yor, rind, raqib, shayx, zohid, voiz, podsho va boshqa obrazlar ham bor. Oshiq va yor obrazlarida samimiy sevgi, sadoqat, vafo va boshqa ezgu insoniy xislatlar tarannum qilinadi. Navoiy xo‘rlangan, jabrlangan xotin-qizlarni e’zozlaydi, sharaflaydi.

Navoiyning ulug‘ iste’dodi tufayli an’anaviy mavzu, badiiy ifoda va obrazlar yangicha ruh, yangicha ma’no kasb etadi. Chunki Yo.Ishoqov ta’kidlaganidek, Navoiy lirikasining ildizlari milliy zaminida tarbiya topib, o‘sib chiqdi va o‘z taraqqiyotida o‘zbek og‘zaki va yozma adabiyotning tajribalari bilan bir qatorda, fors-tojik poeziyasining yutuqlaridan ham oziqlandi, ulardagi eng yaxshi traditsiyalarni o‘ziga singdirib, yangi va yuqori bosqichga ko‘tardi.

Navoiy g‘azallarining shoir biografiyasi, shaxsiyati bilan bog‘langan o‘rinlarida shoir obrazi juda murakkab, lekin chuqur ijtimoiy mazmun kasb etadi, umumlashma obraz darajasiga ko‘tariladi (har qanday shoir ham o‘z davrining

<sup>1</sup> Haqqulov Ko‘nglumni g‘amu dard ila qon ayladi ishq.Ishonch. 2001. 23-fevral

odamidir). Agar shoir chinakam talantga ega bo‘lib, davrining ruhi bilan yashagan bo‘lsa, u o‘z shaxsiy kechinmalarini ham umumjamiyat ahamiyati darajasiga ko‘tarib kuylaydi. Navoiy o‘z intim kechinmalarini shu xilda umumlashtira bilgan edi. Buning uchun quyidagi g‘azalni ko‘zdan kechiraylik:

*Bor edi, ul hamki, bir chog‘, bizga yore bor edi,  
Kulli ar yor o‘lmasa, filjumla bore yor edi.  
Vaslidin butkarmasa, taskin berur erdi so‘rub,  
Xasta ko‘nglum dardini kim, hajridin afgor edi.  
Men agar mahrum edim, mahram ham ermas edi ul,  
Ko‘nglum ar ozurda erdi, lek minnatdor edi.  
Sham‘agar yorutmasa, kuydurmasa ham yaxshidur.  
Ne ulusqa ulfat ondin, ne menga ozor edi.  
Go‘yiyo shukr etmadimkin, onsiz o‘lmishmen bu dam,  
Ul quyoshimni yoshurgan charxi kajraftor edi...*

Shoir bunda o‘zining ham bir vaqtlar yori bo‘lganini eslaydi.

Shoir o‘zining g‘azallarida majoz va haqiqat munosabatlarini o‘zaro ranglarda ham ifodalab bergan. Ushbu g‘azalga e‘tiborimizni qaratsak,

*Jilvamu aylar qizil to‘n birla har yon ul pari,  
Yo magarkim lolazor ichra kezar kabki dari?  
Telbalar qatli qizil qilmish libosin, ohkim,  
Bir yo‘li devonalar qonig‘a kirmish ul pari.  
Hullasin xunoblig‘ jon rishtasidin qildi charx,  
Bo‘ldi jonlar joni, vah-vah, ul parivash paykari.  
Orazing naqshimidur qonlig‘ ko‘ngulda jilvagar,  
Yo shafaqdin bo‘ldi tole‘ oftobi xovariy.  
Ich shafaqgun mayki, gardun qotiledurkim, erur  
Yangi oy birla shafaq tig‘u libosi ahmariy.  
Qon uza ko‘nglum yuzung shavqidin andoq xastadur,  
Kim erur gulgun harir ollida oning bistari.  
Ul pari la‘lida joning, ey Navoiy bo‘ldi mahv,  
La‘lgun kivatda mahv etgandek o‘zni ul pari.*

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 576-g‘azal)

G‘azalda qizil to‘n kiygan jononning pariday nozikligi, gul sayriga chiqib javlon urishi, jilvalar qilishi va bu lolazor oralab yurgan tog‘ kakligi (kaklikning bo‘yin patlari, qanotlari usti qizg‘ish rangda bo‘ladi)ga o‘xshab ketishi tasvirlanadi, ya‘ni “qizil libos kiygan jonon lolazor saylida” degan bir chiroyli surat o‘quvchi ko‘z

oldida gavdalantiriladi. Demak, boshqa gʻazalarda boʻlganiday, bu gʻazalda ham Alisher Navoiyning manzara, oʻziga xos bir lavha yaratish va shu lavhaning oshiq diliga xilma-xil taʼsirlarini tasvirlash mahorati koʻzga tashlanadi. Bu gʻazalda markaziy tashbeh yoki kalit soʻz-bu qizil toʻn.

Qizil libosli jononning xatti-harakati, jilva-karashmasini koʻrsatish koʻproq nazarga tushadi. Birinchi baytda jonon pariga oʻxshatiladi. Pari nima? Pari-ruh, xalq tasavvuri boʻyicha u goh koʻrinadi, goh koʻrinmaydi, chunki u-samoviy xilqat. Mashuq pariga oʻxshatilar ekan, demak uning nihoyatda nozikligiga ishora qilinmoqda. Koʻkimsir parlari va qizgʻish tavqli (qushlarning boʻynidagi halqa tavq deyiladi) togʻ kakligi ham gʻoyat goʻzal va nozik qush. Maʼshuqa pariday nozik boʻlgani uchun ham sarxush oshiqlar qoniga kirgan.

Qizil libosli jonon xuddi qon ichidagi malakday. Ajoyib, gʻoyat goʻzal tasvir! Ul jonon parivash boʻlgani sababli jonlar ichidagi jondir, yaʼni ruhdur, deydi shoir. Maqtada Navoiy bu fikrni aniq-ravshan bayon etgan: ul pari oʻzini laʼl rangli(qizil) libos ichiga yashirgani kabi oshiqning joni ham jonon laʼli (qizil labi)ichiga yashirinib, gʻoyib boʻlgan. Boshqacha aytganda, oshiq va mashuq birlashib ketgan. Bu oʻrinda yana bir izohga ehtiyoj bor: oʻquvchida qanday qilib bir odam ikkinchi odamning labida yoʻqolishi mumkin, degan savol tugʻilishi mumkin.

Bunga javob shuki, laʼl lab deganda tasavvufda maʼshuqa soʻzining botini, nozik maʼnosi, shuningdek, ilohiy nafas, yoʻqlikdan borliqni vujudga keltirgan Olloh kalomi anglashiladi. Yaʼni bu kalom barchani qamrab oladi, vali zotlar mujdasi bilan oshiq vujudiga singib, uning jonini egallab oladi. Mana shu tariqa, pari soʻzining tasviri nozik ibora va ishoralar orqali orifona maʼnoni ifodalashga xizmat qilgan.

*Kirdi siymobiy libos ichra yana ul gulʼuzor,*

*Ul quyoshdekkim, anga moniʼ boʻlur abri bahor.*

Quyoshga boqqan kishining koʻzi yoshlanadi. Bahor chogʻi quyosh yuzini qoplagan bulutning koʻzi ham yoshlanib, yomgʻirga aylanadi. Shiddat bilan yogʻayotgan yomgʻir iplari simobiy koʻylakda chizilgan kalta-kalta chiziqlarni eslatadi. Bu holatni koʻrib, oshiqning yuragi simobdek beqaror boʻlib, hayajon va talvasaga tushadi. U oʻz iztirobi va beqarorligini kumushrang koʻylak tagida yorning oppoq va nozik badani bilan uygʻun koʻradi. Har bir latif harakat, har bir nozik xirom husniga husn qoʻshib, simobiy koʻylakning bu qadar maftunkor boʻlishiga aslida yorning xush qomati sabab ekaniga ishora qiladi.

Insonning vujudi-barcha goʻzalliklarni goʻzallashtiruvchi, jon bagʻishlovchi sharif xilqat. Olamning yaratilishidan murod inson ekan, undagi goʻzalliklarning mohiyati ham qaysidir maʼnoda inson sharofati bilan, inson tufaylidir. Koʻylakning



zeboligi ko‘ylak sohibining qomatiga bog‘liq bo‘lgani kabi, har bir insonning zohiriy go‘zalligi ham uning botinida pimhon turuvchi, simob ichidagi kumushdek sokin va yashirin turadigan ruhiyat olamining pokligi va go‘zalligi tufaylidir:

*Bu libosi siymgun ichra sening nozuk taning*

*Ul kumushdekdurkim, ul siymob aro tut qay qaror.*

Simob, kumush-oqlik, poklik ramzi. Yorning porloq yuzi bilan simobiy libosi bir-biriga aksi tushib, ko‘zguga aksi tushgan quyoshdek ko‘zlarni qamashtirishi-vasf etilayotgan mahbubaning ham surati, ham siyrati pokligidan dalolat. Bunday go‘zallik mazhari uchun to‘kilajak oshiqona ko‘z yoshlari ham poklanuvchi, poklantiruvchi xosiyatga ega. Nur nurga qovushadi, hech qachon balchiqda quyosh aksini ko‘rib bo‘lmaydi:

*Bo‘ldi siymobiy libosing rangi baskim, ayladim*

*Ko‘z sahobidin boshing‘a ashk siymobin nisor.*

Mav‘iza baytida mutafakkir shoir juda ko‘p g‘azallarida bot-bot ta‘kidlagan umrning bebaqoligi, tiriklik olamidagi jamiyki mavjudot alaloqibat fanoga yuz tutishi haqidagi fikrini yangi istiora va tazodlar orqali bayon etadi. Butun g‘azalda yetakchilik qilgan simobiy rang falakning ko‘k rangiga qarama-qarshi qo‘yilib, bu ranglar o‘lim va hayot, rohat va mashaqqat, baqo va fano, o‘tkinchilik va mangulikning timsoli o‘laroq baytda namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi baytlarda simobiy rang vasfi manzurning libosiga nisbatan qo‘llanilgani sabab taxayyul olamida boshqa bir tazod jonlanadi. “Futuvvatnomai sultoni”da berilishicha, oq rang (simobiy) rangdagi kiyimlar shohlar, a‘yonlar, shuningdek, madrasa ahli, faqih va hakimlarga xos bo‘lgan. Axzar, ya‘ni ko‘k rangdagi kiyimlar esa Haq oshiqolari va toliblarining kiyimi, darveshlarga nisbat berilgan. Navoiy aytmoqchi, shohu gado, hakimu so‘fiy, boy va darvesh – barcha vaqti soati kelib bu dunyoni tark etishga majbur. Molidunyoning borligi yo yo‘qligi hech kimni muqarrar ajaldan qutqarolmaydi, hukm yagona –barchamiz Allohnikimiz va barchamiz unga qaytajakmiz:

*Tanni chun siymob etar bu charxi axzar oqibat,*

*To‘n agar siymobiy o‘lsun, gar yashil, bir hukmi bor.<sup>1</sup>*

*Ko‘rgali husnungni zor-u muftalo bo‘ldum sanga,*

*Ne balolig‘ kun edikim oshno bo‘ldum sanga.*

*Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,*

*Vahki, kun-kundin batarrak muftalo bo‘ldum sanga.*

*Men qachon dedim: vafo qilg‘il mango zulm aylading,*

<sup>1</sup> Давлатов О. Маънолар хазинаси (Алишер Навоий ғазалларига шарҳлар) 3-китоб. — Тошкент. Тамаддун, 2021-й. Б. 284

*Sen qachon deding: fido bo'lg'il manga, bo'ldum sanga.  
 Qay paripaykarg'a dersen: telba bo'ldung bu sifat?  
 Ey paripaykar, ne qilsang qil manga, bo'ldum sanga.  
 Ey ko'ngul, tarki nasihat ayladim, avvora bo'l,  
 Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo'ldum sanga.  
 Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,  
 Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga.  
 G'ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,  
 To Navoiydek asir-u benavo bo'ldum sanga.*

“G‘aroyib us-sig‘ar”, 16-g‘azal

Bu ham Navoiyning mashhur g‘azallaridan bo‘lib, muhabbat mavzuidagi bu g‘azal oshiq va ma‘shuqa orasidagi aytishuv (dialog)ga asoslangan: ma‘shuqa noz-firoq ko‘rguzadi, oshiqni qiynaydi. Oshiq esa buni pisand qilmay, hamma balolar, jabru zulmga chidaydi va ishqida sodiq ekanini isbotlab boraveradi. Matla‘dan boshlab butun g‘azalda oshiqlikning azob ekani, muhabbat dilni ohanraboday tortib, tinch qo‘ymasligi, ma‘shuqa qancha o‘zini olib qochsa, oshiq shuncha telbalarcha unga intilishi tasvirlanadi.

Mubtalo, jafo, vafo, balo, fido, telba, so‘zlari vositasidagi baytlarda ikki xil xarakter, ya‘ni nozu karashmali ma‘shuqa va qiynoqlar girdobida qolgan unidvor oshiq obrazlari yaratilgan. Oltinchi bayt g‘azalda mazmunan alohida ajralib turadi. Albatta, bu bayt ham avvalgi baytlar bilan bog‘langan. Ammo bunda shoir muhabbat mavzuidagi ushbu g‘azal ham orifona ma‘noga ega ekaniga urg‘u beradi. Chunonchi, Jamshid jomi va Xizr suyi (obi hayot) – bu piri komil qalbi, bu qalb Alloh nuri bilan munavvar, Navoiy deydi, agar mansab-u davlatni tark etib, darvesh bo‘lsam, ana shu abadiy ilohiy fayz nasibam bo‘ladi. Soqiy deganda ham piri komil, ham yori aziz, ma‘shuqa nazarda tutiladi. Ya‘ni soqiyga –pirga yetishib, ishq nuriga g‘arq bo‘lish uchun darvesh bo‘lish kerak. Oxirgi bayt bu fikrni yana ham kuchaytiradi.

Navoiyning qalami yana bir yangi san‘at asarini yaratishda chog‘lanar ekan “ma‘shuqa” sining go‘zal suvratini ko‘z o‘ngimizda namoyon etadi. Uni ishqqa mubtalo etgan malakning ohu ko‘zlari qora (“Qaro ko‘zum, kel-u mardumlug‘ emdi fan qilg‘il”), yuzlari gul (“Yuzung guliga ko‘ngil ravzasin yasa gukshan”), yoyganda yoqimli hid taratuvchi sochlari uzun (“Kulbamga xayfshon kel, zulfung qilib oshufta”), qoshlari yoydek (“Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?”), lablari shakardek (“Yo Rab, ul shahdu shaker yo labdurur”), sumanga o‘xshagan qaddi nihol kabi (“Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il”), aslida “alif”ga ko‘proq o‘xshaydi (“Qadmudur bu yo erur shingarf ila yozg‘on “alif”), beli ipdek ingichka

(“Belmu yo toreki, la’l ichra anga taskin erur”). Sarvqomat dilrabo ayni o’n sakkiz yoshda (“Ne ajab chun sarvinozim o’n sakiz yoshindadur”). Shoir hatto ma’shuqaning qanday kiyimlar kiyishini ham tasvirlaydi. Parichehra goh moviy ko’ylak ustidan gurang qabo kiyib (“Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig’, yashil”) oshiq yuragiga ishq urug’ini seoishdan charchamaydi. U shunchalar go’zalki, hatto Shirin yoki Layli dan ham ortiq:

*Demangiz Shirin-u Layli oncha bor husn ichrakim,*

*Xo’blikda ul sanam, avvalg’ilarg’a o’xshamas.*

Guli ra’no kabi go’zal mashuqa nozik qadamlar ila bog’ni sayr etar ekan, gullar uning chiroyini ko’rib uyatdan qizarib, sarg’aya boshlaydi:

*Gulruxi ra’noqadim chun bog’ tavf aylar borib,*

*Injiolidin guli ra’no qizarib, sarg’oyib.*

Layli bir qayrilib Qaysni “majnun” aylaganidek, u sanam ham oshiqning es-hushini o’g’irladi. U shu kabi boshqa yuraklarga ham “sho’x o’hu ko’zlari” bilan ishq olovini yoqqan. Ma’shuqa oshiq holiga beparvo, balki jafokor. Ko’rinadiki, navoiy ma’shuqaning nafaqat tashqi ko’rinishi-suvratini, balki endi uning ichki dunyosi-siyratini ham chizadi:

*Menga nomehribon yor o’zgalarga mehribon ermish,*

*Mening jonim olib, ag’yorga oromijon ermish.*

U nega oshiqqa mehribon emas? Nega kelaman deb va’da berdi-yu, kelmadi? Uni kuta-kuta oshiq beqarorning ko’zlariga tong otguncha uyqu ham kelmadi.

*Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro’ kelmadi,*

*Ko’zlarimg’a kecha tong otquncha uyqu kelmadi.*

Qizil, sariq, yashil liboslar kiyib uni telba qilgan yori kelmadi. Va’daga vafo qilmadi. Uning oh-u fig’oni ko’kni tutdi. Sahro shamoli oshiq nolalaridan atrofga qizil, sariq, yashil bo’lib taraldi:

*Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,*

*Kim esar ul dasht aro har yon qizil, sorig’, yashil.*

Bu jabr-u sitamlarning barchasiga sabab-mashuqa bevafo edi. Uning ko’ngli o’zgada edi. Oshiqning raqibi paydo bo’ladi.

*Ul parikim, ani demishman yor,*

*Odamiylik’din o’zga barchasi bor.*

Ha, mashuqada odamiylik, ya’ni vafo, sadoqat yo’q. Bechora oshiq koshki ul bevafoni ko’rmaganda edi, yuragida muhabbat ildiz otmaganda edi, koshki notavon ko’nglida yor vasli orzusi paydo bo’lmaganda edi:

*Emdikim devona-yu rasvoyi olam bo’lmisham,*

*Vasl chun mumkin yo’q o’lturgay bu savdo koshki.*



Sitamkor dilbar oshiq ko'nglini chok-chok qilib tashlagani uchun endi undan nishon qolmadi. Kul ichidan o't axtarib topmagan kabi yuragidan ham nishon topilmaydi:

*Yuz shikof etting tanim, yo'q erdi ko'nglumdin nishon,  
O'ylakim o't topmag'aylar kulni har yon axtorib.*

U suyuklisini ko'rish maqsadida yo'rg'a oti yor eshigi oldidan o'tayotganida sekin yurishi uchun unga bag'ir qonidan xono bog'laydi. Yorning iti uni quvib ketmas ligi uchun jon tomirini arqon qilib uni bog'lashga qodir ("It" deganda raqib na zarda tutilgan):

*Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la,  
Itting'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.*

Navbahor ayyomi, ammo telba oshiq buni payqamaydi. Uning yori yo'qligi sabab, hatto navbahor ham xazon faslidir:

*Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyor-u yorsiz,  
Bulbul o'lg'andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.*

Unga endi yorsiz hayot qorong'u. Oshiqning nazdida yordan ayro ko'ngil sultonsiz mamlakatga, jimsiz jonga o'xshaydi ("Yordin ayru ko'ngil..." g'azali).

Yori bo'lmas ekan, u bir tuproqki gul-u rayhon unmaydi, bir qorong'u kechaki, unda oy yo'q. Navoiy bunday uqubatlardan noliydi:

*Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki bor,  
Hajrdin dardi va lekin vasldan darmoni yo'q.*

Endi u yorsiz "bir egasiz it" kabidir. Bechora oshiqning kipriklari hanuz shabnam to'kilgan maysadek nam. Yuragi "subhning ko'ylagidek chok-chok." Ma'shuqa uning qalbini shunchalar tilka pora qildiki, endi unda yurak borligi ham gumon ("Rahm etib, ey do'stlar..." g'azali). Agar ichiga qo'l solib "yuzi qora ko'ngul" topilsa, "uni tortib, uzib, o'tga solib, jonimni qutqaring,"- deb nola chekadi bechora oshiq. Niyatiga yetolmay, bu olamdan armon bilan ketar ekan, hech bo'lmasa tuproqqa qo'yilganda yori kelishini xohlaydi. Agar shu ham nasib qilmasa:

*Gar muyassar bo'lmasa bu ish, Navoiy xastani  
Qo'ldabon, yo sudrabon mayxona sari boshqoring.*

Ha, mumtoz she'riyatda may ishq timsoli, mashuqa Olloh, raqib-nafs timsoli ekan, komilikka erishishning birdan-bir yo'li ishqqa muftalo bo'lish, va bu yo'lda barcha nafs balolaridan qutilish, uni yengish va nihoyat, olloh tajallisiga erishishdir. Navoiy inson ruhi va tanining poklanishini biz yuqorida ifodalashga uringan "usul" orqali g'oyat ustakorlik bilan ko'rsata olgan.